

**O'ZBEKISTONDA YANGI JAMIYAT SHAFFOF JAMIYAT SARI YO'L,
KORRUPSIYANING ILDIZIGA BOLTA URAMIZ.**

Abdullayev Ahmadullo Akmalovich

Toshkent davlat yuridik universiteti, Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi.

ahmadulloabdullayev305@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15448602>

Abstract. This article explores the anti-corruption measures implemented in the Republic of Uzbekistan. It presents a comprehensive analysis of the concept of corruption, its types, causes, and the negative impact it has on the socio-economic system. The article focuses on the legal and institutional frameworks established to combat corruption, including the Law "On Combating Corruption", presidential decrees, and other regulatory acts.

Furthermore, the paper discusses the role of the Anti-Corruption Agency of Uzbekistan, civil service reforms, digitalization efforts, and the importance of transparency and accountability. It emphasizes the role of civil society, international cooperation, and legal awareness campaigns in the fight against corruption.

Additionally, the article examines international best practices, such as the strict legal frameworks and punitive measures in countries like Singapore, United Kingdom and provides practical recommendations for Uzbekistan. The paper concludes with clear and actionable proposals aimed at reducing corruption in the country.

Keywords: corruption, legal reforms, civil service, transparency, civil society, legislation, penalties, monitoring.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar keng yoritilgan. Korrupsiyaning tushunchasi, turlari, sabablari hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga salbiy ta'siri batafsil tahlil qilingan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy asoslari, jumladan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan siyosiy va institutsional islohotlarga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi Agentlik faoliyati, davlat xizmatini isloh qilish, raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining ahamiyati muhokama etilgan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyatining o'rni, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va huquqiy ongni yuksaltirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Bundan tashqari, dunyodagi ilg'or tajribalar – Singapur, Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi qat'iy qonunlar va jazolar tahlil qilinib, O'zbekiston uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola yakunida korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan aniq takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, huquqiy islohotlar, davlat xizmati, shaffoflik, fuqarolik jamiyati, qonunchilik, jazolar, monitoring.

Kirish

Korrupsiya — davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, qonuniy va axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan harakatlar majmuasidir. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. U shunday bir yomon illatki "qo'li qiyshiq" ayrim odamlarning kasriga butun bir davlat miqyosidagi organlarning,

halol va pok ishlab, davlat uchun jonini berishga tayyor odamlarning ham, umuman olganda aholi oldida butun bir davlatning nomini yomon so'zlarga qoldiradi va ishonchsizlik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Bu insonlarning tomirlarida oqayotgan qodek go'yo, korrupsiyani yo'qotish uchun ularning jonini fido qilmay, qoni bilan chiqarib tashlamay qutulib bo'lmaydigandek mushkul va mashaqqatli ish hisoblanadi. Ammo so'nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu darajada jadallab ketdiki, korrupsiya holatlari birdaniga yo'qolmagan bo'lsada, anchagina pasayganini ishonch bilan ayta olamiz.

Korrupsiyaning mohiyati va turlari

Korrupsiya — bu mansabdor shaxslarning o'z vakolatlaridan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishi, qonunlarga zid ravishda pora olish, berish yoki boshqa noqonuniy harakatlarni amalga oshirishdir. Korrupsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- **Pora olish:** Mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini shaxsiy manfaatlari yo'lida suiiste'mol qilishi. Albatta bu yerda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi sababli inson o'z manfaatini ustun qo'yadi va pora olishga go'yoki majbur bo'ladi.

- **Pora berish:** Fuqarolar yoki yuridik shaxslarning mansabdor shaxslarga qonunga zid ravishda to'lovlar qilishlari. Muayyan maqsadga erishishning eng oson va keng tarqalgan yo'llaridan biri. Bunda faqatgina davlat hokimiyati tizimida emas, boshqa sohalarda ham, masalan, bozor va rastalarda, oldi-sotdi bitimlarida, xususiy korxona va tashkilotlarning mahsulot va xizmatlarni taqdim qilish jarayonida ham ko'rishimiz mumkin.

- **Nepotizm:** Mansabdor shaxslarning o'z qarindoshlari yoki tanish-bilishlariga imtiyozlar yaratishi. Xalq tili bilan aytganda kimningdir boshqa kimlar uchundir "tanka" bo'lib berishi deb atashimiz mumkin.

- **Konsessiya va litsenziya berishdagi suiiste'mollar:** Davlat organlarining ruxsatnomalar berishda qonunga zid harakatlari. Aynan shu sohada butun dunyoda keng muammolar mavjud deb aytish mumkin. Sababi zamonaviy dunyoda hamma tadbirkor, hammaning litsenziya va shu kabi davlat xizmatlariga ishi tushishi turgan gap. Bu esa ushbu sohada korrupsiya holatlarini o'sishiga imkon yaratadi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- **Qonuniylik:** Barcha chora-tadbirlar qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi.
- **Fuqarolar huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi:** Davlat harakatlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.
- **Ochiqlik va shaffoflik:** Davlat organlarining faoliyati oshkora va shaffof bo'lishi kerak.
- **Tizimlilik:** Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimli yondashuvni talab qiladi.
- **Davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi:** Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega.
- **Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi:** Oldini olish chora-tadbirlari asosiy o'rin tutadi.
- **Javobgarlikning muqarrarliligi:** Korrupsiyaga aloqador shaxslar qonun oldida javobgar bo'lishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonun

O'zbekiston Respublikasining *"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"*gi Qonuni 2016 yil 24 noyabrda qabul qilindi va 2017 yil 4 yanvardan kuchga kirdi.

Uning 3-moddasida **korruptsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik — korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat deb asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan.

Ushbu qonun korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Qonunning 4-moddasida korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarlighi.

5-moddasida esa davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirilgan

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi

2020 yil 29 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan **Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi. Agentlik Prezidentga bo'ysunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdor bo'ladi. Uning asosiy vazifalari korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni tahlil qilish, davlat xaridlari va budjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish, korruptsiyaga oid murojaatlarni ko'rib chiqish va ularning huquqlarini tiklashdan iborat. Agentlik har yili ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi lozim bo'lgan Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruzani shakllantiradi hamda uni O'zbekiston prezidenti va Oliy Majlis palatalariga kiritadi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishda parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Parlament boshchiligidagi faoliyat yuritadigan O'zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etilmoqda.

Daromadlarni deklaratsiya qilish tizimi

Davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu tizim mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishini oldini olishga qaratilgan. 150 dan ortiq mamlakatda qo'llanilayotgan ushbu tizim korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi. O'zbekistonda "Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi 2025 yil may oyida tayyor bo'lishi kerak.

Bunday vazifa 21 aprelda imzolangan prezident [farmonida](#) keltirilgan.

Qonun loyihasida deklaratsiya sub'yektlari, obektlari va unda aks ettiriladigan ma'lumotlar, deklaratsiyani taqdim qilish shakli va tartibi, uni tekshirish tartibi nazarda tutiladi.

Topshiriq ijrosi uchun mas'ul sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura ko'rsatilgan.

21 aprel kungi farmonga asosan, yana boshqa qator hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Xususan, vazir va hokim lavozimiga nomzodlar tegishli Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarida ko'rib chiqilayotganda ular korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq rejasini taqdim etib, himoya qilishi kerak bo'ladi. Buning tartibini Oliy Majlis palatalari kelishuv asosida, 2025 yil may oyi oxirigacha ishlab chiqishi zarur.

Fuqarolarga sifatli yuridik yordam ko'rsatilishida advokatlar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan qonun loyihasi 2025 yil iyun oyida tayyor bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

Iyun oyi oxirigacha, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatiga oid farmon loyihasi ham ishlab chiqiladi va unda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- **davlat xizmatchilari reyestri;**
- **kadrlarning korrupsiyaga moyillik darajasini o'rganish tartibi;**
- **davlat xizmatchilarini ishga qabul qilish jarayonini ochiq va shaffof o'tkazish mexanizmlari;**
- **davlat xizmatchisining malakasi va salohiyati, erishgan natijalarini IT texnologiyalar asosida baholash, nomzodlarni lavozimga tayinlashda ularning bilimi, tajribasi va erishgan natijalarini asosiy mezon sifatida belgilash;**
- **vazirlik va idoralar markaziy apparatidagi rahbarlik lavozimlariga ustuvor ravishda quyi bo'g'inlarda ishlagan, tuman (shahar) darajasida rahbarlik lavozimlariga esa viloyat, respublika idoralarida ishlagan kadrlarni tayinlash bo'yicha yangi tizim.**

2025 yil iyungacha "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qayta ko'rib chiqiladi va unda:

- **korrupsiya jinoyatlarning aniq ro'yxati va bu borada jazo choralarini kuchaytirish;**
- **korrupsiyaning oldini olish, aholini, ayniqsa, yoshlarni bunga toqatsizlik ruhida tarbiyalash, profilaktika mexanizmlarini yaratish;**
- **korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish va himoya qilish tartibi nazarda tutiladi.**

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2003 yil), Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya (2000 yil), Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiya (1999 yil) kabi xalqaro huquqiy

normalarga qo'shilgan. Bu konvensiyalar korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat xizmatini isloh qilish

Davlat xizmatini isloh qilish korrupsiyani kamaytirishdagi eng muhim yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston Respublikasida bu borada bir necha yillardan buyon keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, davlat xizmatiga kirish tartibi, kadrlar tanlovi, ularning kasbiy malakasi va faoliyatini baholash mexanizmlarida muhim o'zgarishlar yuz bermoqda.

2019 yildan boshlab davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilish tizimi yo'lga qo'yildi.

Bunda ochiq tanlov, test sinovlari, suhbatlar va baholash jarayonlari orqali nomzodlarning bilim va salohiyati aniqlanadi. Bu usul "tanish-bilishchilik" va "pul evaziga lavozim olish" kabi korrupsion ko'rinishlarning oldini olishda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, davlat xizmatchilarining daromad va mulklarini deklaratsiyalash tizimi joriy etilmoqda. Bu tizim xodimlarning noqonuniy boylik orttirishining oldini olishga xizmat qiladi.

Hozirda bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va 2024 yilga kelib u to'liq davlat xizmatchilarini qamrab olishi rejalashtirilgan.

Davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini baholash ham muhim omil hisoblanadi. Bu orqali samarali ishlamagan, xizmat vazifasini suiiste'mol qilgan xodimlar aniqlanib, intizomiy va ma'muriy choralar ko'rilmogda.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 2-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 28-mayda ma'qullangan **“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”**gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va 2022-yil 10-noyabrdan kuchga kirdi. Ushbu qonun davlat xizmatchilarining maqomini, ularning huquq va majburiyatlarini, xizmat faoliyatining asosiy prinsiplari va javobgarlik mezonlarini belgilab berdi.

Mazkur islohotlar natijasida davlat xizmatchilari orasida korrupsion holatlar kamaymoqda, ishga qabul qilish jarayonida ochiqlik va adolat tamoyillari kuchaymoqda. Shu bilan birga, fuqarolar orasida davlat xizmatlari faoliyatiga bo'lgan ishonch ortib bormoqda.

Ochiqlik va shaffoflik tizimlarini joriy etish

O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Elektron hukumat tizimi, **“E-qaror”**, **“E-xarid”** va **“Open Budget”** kabi platformalar orqali davlat xarajatlari va qarorlarini fuqarolar nazorati ostida yuritishga harakat qilinmoqda. **2022 yildan boshlab “Ochiq ma'lumotlar portali”** faoliyati kengaytirilib, davlat idoralarining statistikasi, budget sarflari va boshqa ko'rsatkichlari ommaga taqdim etilmoqda. Bu korrupsiyaning yashirin shakllariga qarshi samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'lim va fuqarolarning huquqiy ongi

Yoshlar orasida korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirish maqsadida ta'lim tizimida turli mavzularda darslar, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan **“Korrupsiyaga qarshi madaniyat”** loyihasi doirasida ko'plab targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Maktab, kollej, oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar joriy qilinmoqda.

Fuqarolik jamiyati va OAV ishtiroki

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ishtiroki ham kuchaytirilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy axborot vositalari (OAV) korrupsiya holatlarini yoritish, fosh etish va profilaktik ishlarni olib borishda faol ishtirok etmoqda. Xususan, **“Davlat xizmatlari agentligi”** va **“Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi”**ning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi aholi orasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda erishilgan yutuqlar

Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. Masalan:

- 2021–2023 yillarda Agentlik tomonidan 8000 dan ortiq korrupsion holat aniqlangan.
- 2023 yilda Transparency International tashkiloti reytingiga koʻra, Oʻzbekiston korrupsiya idroki indeksida 7 pogʻonaga yuqorilagan.
- 2022 yilda 2000 dan ortiq davlat xodimi noqonuniy harakatlar uchun javobgarlikka tortilgan.
- 2020 yildan buyon 50 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat korrupsiyani oldini olishga qaratilgan tarzda qabul qilindi.
- Davlat xaridlarining 80 foizi elektron tizim orqali amalga oshirilmoqda, bu esa inson omilini kamaytirgan.

Hali mavjud muammolar

Shu bilan birga, tizimda hal qilinishi lozim boʻlgan qator muammolar ham mavjud:

- **Byurokratiya va mahalliy darajadagi korrupsiya** — ayrim mahalliy hokimiyat organlarida shaffoflik yetarli darajada emas.
- **Qonunchilikdagi ziddiyatlar** — ayrim holatlarda korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlar boʻyicha jazo choralarining yumshoqligi.
- **Sud tizimidagi kamchiliklar** — ayrim korrupsiya ishlarida adolatli sud qarorlariga erishish muammosi mavjud.
- **Jamoatchilik nazoratining sustligi** — fuqarolar hali ham koʻplab holatlarda korrupsiyaga nisbatan befarq.

Xulosa va takliflar

Oʻzbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashishda soʻnggi yillarda muhim yutuqlarga erishdi. Mamlakatda korrupsiyaning ildiz otishiga yoʻl qoʻymaslik uchun quyidagi takliflar dolzarb hisoblanadi:

Takliflar:

1.Korrupsiyaga qarshi taʼlim tizimini kuchaytirish – maktabdan boshlab korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarning huquqiy savodxonligi muhim omildir. Agar aholining koʻpchiligi korrupsiyaning salbiy oqibatlarini, u bilan bogʻliq qonunchilikni yaxshi bilmasa, korrupsion harakatlarga duch kelganida ularni fosh eta olmaydi yoki bu holatni odatiy deb hisoblaydi.

Asosiy maqsad:

- Maktab, kollej, oliy taʼlim muassasalarida korrupsiyaga qarshi maxsus fanlar joriy qilish.
- Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni oshirish uchun amaliy seminarlar, treninglar, viktorinalar oʻtkazish.
- OAV orqali keng koʻlamli tushuntirish ishlarini yoʻlga qoʻyish.

2. Mustaqil monitoring tizimlarini joriy etish – OAV va NNT orqali davlat organlari faoliyatini nazorat qilish. Korrupsiyaga qarshi kurashni faqat davlat organlari nazoratida olib borish yetarli emas. Bu jarayonga jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV faol jalb etilishi lozim.

Asosiy maqsad:

- Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va jamoatchilik vakillari ishtirokida “kuzatuv kengashlari”ni shakllantirish.
- Korrupsiyaga oid holatlarni mustaqil tarzda kuzatib boradigan ochiq platformalar yaratish.

• Hisobot beruvchi va monitoring yurituvchi nodavlat institutlarga qonuniy asosda moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish.

3. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish – inson omilini kamaytiruvchi texnologiyalarni keng joriy qilish. Davlat xizmatlarini ko'rsatish, budjet xarajatlarini rejalashtirish, davlat xaridlari kabi sohalarida inson omilining mavjudligi — korrupsiyaga yo'l ochuvchi asosiy omillardan biridir. Raqamli texnologiyalar esa inson aralashuvini kamaytiradi va shaffoflikni oshiradi.

Asosiy maqsad:

- “Elektron hukumat”, “E-xarid”, “E-qaror”, “my.gov.uz” kabi tizimlarni to'liq joriy qilish.
- Barcha davlat idoralarida raqamli hisobot tizimlarini yo'lga qo'yish.
- Fuqarolarga davlat xizmatlarini onlayn ko'rsatishni kengaytirish.

Sababi elektron hukumat tizimi insonlarning manfaatlaridan holi bo'lganligi va har bir narsa avtomatlashganligi sababli insonlarda yuzaga kelayotgan manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda katta yordam bera oladi. Shu manfaatlar to'qnashuvining o'zi ko'plab korrupsiyalarga sabab bo'lmoqda

4. Qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish – ayniqsa javobgarlik mexanizmlarini qat'iyalashtirish. Ayrim qonunchilik hujjatlarida korrupsion harakatlar uchun belgilangan jazo choralarning yetarli darajada og'ir emasligi yoki aniq izohlanmaganligi, amaliyotda uni to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Asosiy maqsad:

- Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazoni og'irlashtirish (ayniqsa, yuqori lavozimdagi shaxslarga nisbatan).
- Poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi holatlar uchun aniqlik kiritilgan tushunchalarni ishlab chiqish.
- Qonunchilikdagi bo'shliqlarni tahlil qiluvchi maxsus parlament komissiyasini shakllantirish.

Masalan ayrim dunyoning rivojlangan davlatlarida qonunchilik tizimida korrupsiya holatlariga qarshi jazo tizimi qattiq bo'lganligi sababli korrupsiya holatlari juda ham kam. Misol qilib quyidagi davlatlarni olishimiz mumkin:

1. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun Prevention of Corruption Act (PCA) qabul qilingan. Bu qonun korrupsiyaga oid barcha holatlarni, jumladan, pora olish va berishni jinoyat sifatida belgilaydi. Jazo tizimi ham juda og'ir sanaladi.

PCA bo'yicha pora olish yoki berish uchun maksimal jazolar quyidagicha:

- Jismoniy shaxslar uchun: 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va/yoki 100,000 S\$gacha jarima.
- Yuridik shaxslar uchun: 1 million S\$gacha jarima.

Singapurda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazolar qat'iy qo'llaniladi, bu esa davlatda korrupsiyaning past darajada bo'lishiga olib keladi.

2. Birlashgan Qirollik (Buyuk Britaniya) da korrupsiyaga qarshi kurashish uchun Bribery Act 2010 qabul qilingan. Bu qonun pora olish, berish va korporativ poraxo'rlikni jinoyat sifatida belgilaydi.

Bribery Act 2010 bo'yicha pora olish yoki berish uchun jazolar quyidagicha:

- Jismoniy shaxslar uchun: 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va/yoki cheksiz jarima.
- Yuridik shaxslar uchun: 1 million funt sterlinggacha jarima.

Buyuk Britaniyada korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazolar qat'iy qo'llaniladi, bu esa davlatda korrupsiyaning past darajada bo'lishiga olib keladi.

5.Fuqarolarni rag'batlantirish tizimi – korrupsiya haqida xabar bergan fuqarolarga ijtimoiy himoya va rag'batlar berish. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni fosh etishda fuqarolarning bevosita ishtiroki katta ahamiyatga ega. Ammo ko'p hollarda odamlar qo'rqadi yoki o'zini bu holatdan chetda tutadi. Agar ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilsa, faol fuqarolik pozitsiyasi kuchayadi.

Asosiy maqsad:

- Korrupsiya holati haqida ma'lumot bergan fuqarolarga qonuniy himoya kafolatlarini belgilash.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar qilgan shaxslarni anonimlik bilan himoya qilish tizimini joriy etish.
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga foydali axborot bergan shaxslarga moddiy rag'bat (mukofot) berish mexanizmini yo'lga qo'yish.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada muhim huquqiy, tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati, raqamlashtirish jarayonlari, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashdagi tashabbuslar bu yo'ldagi ijobiy qadamlardir. Biroq, hali-hanuz sud tizimi, davlat xizmatiga yollash va fuqarolar ishtirokida kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Singapur, Buyuk Britaniya, Daniya va Finlandiya tajribalari O'zbekiston uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy ta'limni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini faollashtirish, qonunchilikni takomillashtirish kabi aniq takliflar ilgari surilgan.

Korrupsiyani bartaraf etish faqat davlat emas, balki butun jamiyatning uzluksiz va faol ishtirokini talab etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, 2016 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-sonli Farmoni, 2020 yil
3. <https://ombudsman.uz>
4. <https://ilmiybaza.uz>
5. <https://xs.uz>
6. <https://kun.uz>
7. Transparency International — Corruption Perceptions Index 2023
8. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi, 2021–2025 yillar
9. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hisobotlari, 2021–2023
10. BMT Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2003)